

Karimova Dilafruz Baxtiyor qizi

*Berdaq nomidagi qoraqalpoq davlat universiteti filologiya va tillarni o‘qitish : o‘zbek tili
3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *O‘zbek xalqi shevalarga judayam boy uluslardan biridir. Shevalar turfa xil bo‘lgani bilan ularning o‘ziga xos xususiyatlari talaygina. Biz mazkur maqolada aynan o‘zbek xalqi shevalarining, asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lmish fonetik tomoniga ko‘proq urg‘u bergan holda, bir-biridan o‘xshash va farqli unsurlarni tahlil qilish orqali o‘rganamiz. Ushbu maqolada o‘zbek xalqi shevalarining fonetikasi haqida ma‘lumotlar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *fonetika, sheva, lahja, unlilar, undoshlar, tovushlar tizimi*

Abstract: *The Uzbek people are one of the nations rich in dialects. Although dialects are diverse, they have many unique characteristics. In this article, we will study the dialects of the Uzbek people by analyzing the similar and different elements, with more emphasis on the phonetic aspect, which is one of its main features. This article provides information about the phonetics of the dialects of the Uzbek people.*

Key words: *phonetics, dialect, dialect, vowels, consonants, sound system.*

Barchamizga sir emaski, o‘zbek xalqi boy va qadimiy tarixga ega. Ajdodlarimiz dunyoning turfa xil yerida yashagan bo‘lsalarda, ular “Turk xalqi” nomi ostida do‘stona tarzda hayot kechirishgan. Bizning tariximiz uzoq o‘tmishga borib tarqaladi. Xususan, hattoki Doro I tomonidan bitilgan bitikdoshda ham 3 ta davlat nomi keltiriladi. Bular Xorazm, So‘g‘d, Baqtriya. Ko‘ryapmizki, demak o‘sha davrning buyuk hukmdori ham bizning Xorazmni davlat sifatida tan olgan. Bu kabi ma‘lumotlar talaygina va xilma-xildir. Bizning mavzuyimizga tarixni qanaqa aloqasi bo‘lishi mumkin dersiz, katta aloqasi bor. Sababi, bizning xalqimiz dastlab ko‘chmanchi tarzda hayot kechirgan, u hududdan bu hududga ko‘chib yurgan. Natijada o‘sha yerlik aholining nutqidagi ayrim so‘zlar ular nutqida ham o‘rnashib qolgan. Bu esa turfa xil tillarni, shevalarni vujudga kelib qolishiga sabab bo‘lgan. Til-ku katta ijtimoiy hodisadir, ammo shevachi, u ham ijtimoiy hodisami, yo‘q. Hech bir sheva, hech bir til o‘z-o‘zidan vujudga kelib qolmaydi. Ularni vujudga kelishi judayam murakkab hodisa va u yillar, asrlarni talab qiladi. Chunki u tabiiy ravishda dunyoga keladi. Shuning uchun ham, sun‘iy tillarga, konyalarga nisbatan umri ancha uzun. Biz mazkur maqolamizni Shevalarga bag‘ishladik. Ya‘ni aynan ularning fonetik xususiyatlariga. Bilamizki, mustaqil O‘zbekistonimizda shevalar talaygina va rang-barang. Ularning ayrimlari bir-biridan ba‘zi unsurlar bilangina farqlansa, ayrimlari orasida katta tafovutlar bor. Bugungi maqolamiz aynan shu farqli va o‘xshash xususiyatlar fonetika tomonidan tadqiq qilinadi. Dastavval, o‘zi sheva nima, fonetikaga uni qanday aloqasi bor, shular haqida fikr yuritamiz.

Demak, Shevaga shunday ta'rif beriladi:

Sheva (fors. — harakat tarzi, tarz, usul) — tilning fonetik, grammatik va lug'aviy jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan eng kichik hududiy ko'rinishi — sezilarli lisoniy tafovutlari bo'lmagan bir yoki bir necha aholi maskani (odatda, qishloq)da yashovchilarning so'zlashuv vositasi sifatida qo'llanadi. Sheva — bu boshqa Sheva tizimlaridan fonetik, grammatik, so'z yasalishi va lug'aviy belgilariga ko'ra farqlanuvchi lisoniy tizim sifatida mavjud bo'ladi. Masalan, qipchoq lahjasining mang'it yoki saroy shevasi, qarluq lahjasiga mansub marg'ilon shevasi va boshqalar o'zbek tilining eng kichik hududiy ko'rinishlari hisoblanadi. Alohida Shevalar birikib, Lahjalarni tashkil etadi.

Shevalar tizimining murakkablik darajasi, asosan, ekstralingvistik omillar:

- Shevaning alohidalanish (ajralib qolish) darajasi;
- Muayyan Sheva vakillarining boshqa Shevalar va tillarning vakillari bilan aloqa qilish darajasi;
- Adabiy tilning shevaga ta'siri.

Alohida ajralib qolgan Shevalarda uning vakillari bilan atrofdagi aholi o'rtasida aloqalarning yo'qligi (geografik yoki siyosiy sabablar, atrofdagi aholining til, madaniyat, diniy e'tiqod jihatdan ayni Sheva vakillaridan keskin farqlanishi tufayli), sheva vakillarining an'anaviy turmush tarzini saqlab qolishga astoydil intilishi oqibatida Sheva juda sekinlik bilan o'zgaradi, katta va kichik yoshdagilarning tilidagi farq sezilarsiz darajada bo'ladi. Adabiy tilning yoki boshqa shahrining kuchli ta'siri ostida bo'lgan shahrida aholining turli guruhlari nutqiga xos bo'lgan, bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan va turli darajada farqlanadigan an'anaviy (qadimiy) va yangi qatlamlar ajralib turadi. Xususan, Poytaxtga yaqin shevalarda o'zgarishlari, ya'ni adabiy tilga yaqinlashish judayam kuchli. Ularning shevasi adabiy til bilan deyarli bir xil, ammo Xorazm shevalari umuman farqli bir dunyo. U adabiy tilning judayam kam unsurlarni o'zida saqlagan. Bu ularning iqtisodiyotda orqada qolganidan emas, balki ularning ayrim sabablar bilan o'zining shevasini kam o'zgarishlar asosida saqlab qolgan bo'lishi mumkin. Bizningcha bular qaysilar:

- *Poytaxtdan ancha uzoqligi, ya'ni masofa tufayli.*

(Bu ham katta ta'sirga ega).

- *O'g'uz lahjasi ekanligi.*

(Ya'ni O'zbekiston adabiy tili ko'proq qarluq shevasiga asoslangan. Qarluq bilan o'g'uz, yoxud qipchoq umuman boshqa-boshqa dunyolar)

- *Ushbu shevaning bosimi*

(Shevalar ichida ham ustuvorlik va bosim bor, bu g'alati tuyulishi mumkin. Lekin bu bor narsa. Masalan, oddiygina bitta joyda 3 ta qarluq vakillari va 1 ta o'g'uz vakilini 5 oy muddat davomida yashasa, ular ham o'g'uz lahjasida gapirishni boshlashadi. Ayrim so'zlari o'zgaradi, baribir ta'siri kuchli. Yana bitta fakt, masalan Xorazmlik bitta qiz Toshkentga kelin bo'lib tushdi va u 10 yilgacha uyiga qaytmadi. Ammo uning

shevasi o'zgaradimi, yo'q. U yana Xorazmga qaytsa o'zining shevasida hech qanday o'zgarishlarsiz gapirib keta oladi. Bu bor narsa).

Bu kabi ma'lumotlar talaygina. Biz endi maqolamizning asosiy mavzusiga qaytamiz. Demak, shevalarning fonetik xususiyatlari. Dastavval, fonetika atamasiga ta'rif bersak.

Fonetika (yunoncha: phonetikos — tovushga, tovush chiqarishga oid; tovushli, ovoqli) — 1) tilshunoslikning nutq tovushlarining hosil bo'lish usullarini va akustik xususiyatlarini; bo'g'in, nutqning pauza bilan ajraluvchi qismlarini o'rganuvchi bo'limi. Shu bilan birga, ayrim tilshunoslar fonetika doirasiga tovush birliklarining yozuvdagi ifodalari (grafika) va ma'noli birliklarning yozilish qoidalari (imlo)ni ham qo'shib, uning o'rganish obyekti yanada kengaytiradilar (rus olimi L. V. Shcherba). O'zbek tilshunosligida fonetika doirasida, asosan, nutq tovushlari [ularning artikulyatsion, akustik, persektiv (psixofonetik) va funksional tomonlari] va ohang (bo'g'in, sintagma, urg'u va boshqalar) o'rganiladi.

Bilamizki, Shevalar faqat fonetikaga ega, ularda yozma nutq yo'q, faqatgina og'zaki nutq orqali ifodalash mumkin. To'g'ri, ayrim asarlarda shevaga xos keltirilishi mumkin, lekin bu degani sheva nutqqa ham ega degani emas, shunchaki yozuvchilar nimaga ushbu so'zlarni qo'llaydi, sababi aynan o'sha qahramonning qaysi hududdan ekanligini bildirish uchun.

O'zbek shevalarining murakkab tarkibga egaligi avvalo ularning fonetik jihatdan rang-barangligi tufaylidir, o'zbek shevalari unli va undoshlar miqdori va sifati, fonetik qonuniyatlar, fonetik jarayonlarning o'ziga xosligi jihatidan o'zaro farqlanadi va ular bir-biri bilan o'xshashliklarga ham ega bo'ladi.

Unli va undoshlar tizimi o'zbek shevalaridagi unli va undosh tovushlarning miqdori va sifati munozarali masalalardan biridir, chunki dialektologik ishlarda unli fonemalar haqida fikr yuritilganda, ularning soni 18 tagacha yetadi, degan ma'lumotlar beriladi. Aslida shevalar fonetikasi o'rganilar ekan, ulardagi fonemalar emas, balki konkret nutq tovushlari e'tiborga olinishi lozimligini qayd qilish o'rinli bo'ladi.

❖ *Unlilar tizimi (vokalizm).*

Qarluq-chigil-uygur lahjasiga kirgan dialekt va shevalarda **6 tadan 11 tagacha** unli tovush bor. Singarmonizmni yo'qotgan shevalarda **6 ta**, singarmonizmli shevalarda esa **9 – 11ta** unli qo'llanadi:

- Toshkent shevasida ɤ /i/, e/e, ə/a, ə/a, o/o, y/u;
- Samarqand shevasida ɤ /i/, e/e, ə/a, a/a, o/o, y/u unlilari qo'llangan bo'lsa;
- Qo'qon, Marg'ilon, Chust, Qarshi, Sariosiyo kabi shevalarda **o** unlisi bilan birgalikda **a** unlisi ham qo'llanadi;

• *Shimoliy o'zbek shevalarida* (Turkiston, Chimkent, Sayram) **11 ta** – a/a, e/e, ə/a, ɪ/i:, ɤ /i/, ɪ/ɪ:, ɤ/ɪ, o/o, i/i:, y/ū y/ū) unli mavjud. *Qipchoq* va *o'g'uz* lahjasidagi shevalarda ham **11 ta** unli tovush qayd qilinadi.

❖ *Undoshlar tizimi (konsonantizm).*

O‘zbek shevalaridagi sof turkiy so‘zlarda *б/б, n/p, в/v, м /m , m/t, д/d, с/s, ч/c, дж/г, и/s, н/n, л/l, p/r, ў/j* (“y” o‘rnida qo‘llanadi), *к/к, r/g, u/m, x/x, к/q, x/h* undoshlari doim iste‘molda bor. O‘zlashgan so‘zlarda *u* undoshi *s(ts)* bilan, *z* (sirg‘aluvchi bo‘lsa ham) undoshi *дж/й* kabi tallaffuz qilinadi. *Ф/f* undoshi undov va taqlidiy so‘zlarda lab-lab tovushi talaffuz etiladi, o‘zlashgan so‘zlarda esa *p*, ba‘zan *b* undoshiga moyil talaffuz qilinadi. *H* undoshi aksariyat shevalarda *x* undoshi fiziologik tabiatiga moslashadi, lekin shimoliy o‘zbek shevalarida, qipchoq shevalarida bu undosh talaffuzda bor. Shuningdek, arabcha va forsha so‘zlardagi shu tillarga xos bo‘lgan *h, f* undoshlari shevalarda o‘zbek tili shevalarining artikulyatsion-akustik xususiyatlariga moslashgan.

Shevalarda ham ma‘lum bir qoidalar asosida boradigan fonetik o‘zgarishlar, fonetik qoidalar mavjud. Fonetik qoidalar faqat adabiy tilda emas, balki shevalarda ham kuzatiladi. Ushbu o‘zgarishlardan namunalar keltirib o‘tamiz.

• **Dissimilatsiya.**

So‘z tarkibidagi undoshlarning boshqa tovush ta‘siridagi tovush variantiga ega bo‘lishi dissimilatsiyadir:

- zarar ~ зтэр ~ tiidr,
- devor ~ дувол ~ duval,
- anjir ~ энджър ~ anzil,
- qimmat ~ цыймат ~ ijlmjat.

➤ **Sandhi.**

Bunda ikki so‘zning talaffuzi jarayonida oldingi so‘z nihoyasidagi undosh keyingi (boshlanuvchi so‘z) tovushga moslashadi:

- Menga ber ~ магам бер ~ mayamber
- Dastlabki so‘zning oxirgi tovushi (keyingi so‘z unli bilan boshlansa)

jaranglashadi:

- bo‘lak odam ~ болкадам ~ bolagadam,
- hayron bo‘ldim ~ хйрэмболпъм.

➤ **Spirantizatsiya.**

Nutq jarayonida portlovchi tovushning sirg‘aluvchi variantiga ega bo‘lishi spirantizatsiyadir:

- yubordi ~ джувэрдъ ~ zuvardi (qipchoq),
- sabr qildi ~ савър цьлдъ ~ savi‘r q‘ildi (Xorazm),
- gapi ~ гзвь ~ Ivi (qipchoq).

➤ **Spontan o‘zgarishlar (jaranglashish).**

U biror tovush ta‘sirida yuz bermaydi, balki shevaning tarixiy rivojlanishi bilan bog‘liqdir:

- suyak ~ суюг ~ siijag (Namangan),
- qarg‘a ~ гарга ~ yarya (qipchoq).

➤ **Metateza.**

U soʻz tarkibida undoshlarning oʻrin almashishidir. Qipchoq shevalaridagi ayrim soʻzlar orqali bunga namunalar keltirishimiz mumkin:

- faryod~пэйрэт ~rajrat,
- qoʻshni ~ цощь ~ qor\si,
- qtimursqa ~ курмусца ~ qyrmysqa,
- tekshir ~ тешкэр ~ tester.

➤ **Reduksiya.**

Soʻz tarkibida ayrim tovushlar pozitsiyasining kuchsizlanishidir:

- kishi ~ к(ь)ш(ь)~k(i)s(i),
- кета бер ~ кет(ь)вур ~kəl(h)vur,
- Sharif ~ Шэр(ь)п ~ sar(i)p.

Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlash lozimki, hali shevalar borasida oʻrganiladigan maʼlumotlar, bilimlar talaygina. Chunki, shevalarning yuzaga kelishidan bir necha asrlar, yillar ketgan, bu degani uning tadqiq qilinishi uchun 3-5 yil kamlik qiladi degani. Shevalar judayam qiziqarli va oʻrganilishi dolzarb boʻlgan sohalardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

- Aliyev A.Yu., Nazarov K.N. Oʻzbek tilining mahalliy shevalari boʻyicha material toʻplovchilar uchun metodik qoʻllanma. T., 1976.
- Joʻrayev B. Oʻzbek adabiy tili va oʻzbek dialektlari. T., 1963.
- Doniyorov X. Oʻzbek xalqining shajara va shevalari. T., Fan, 1968.
- Rajabov N. Oʻzbek dialektologiyasidan qoʻllanma. S., 1974